

UDK: 558.552/1963.58002.58006.

**LAGOCHILUS PROSKORIAKOVA – DORIVOR O‘SIMLIGINING
BIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Mamarasulova Nafisa Isrofilovna

Sam DTU, Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrası o‘qituvchisi.

mamarasulovan@mail.ru

Abdullayev Toxir Xamza o‘g‘li

Sam DTU, Davolash ishi fakulteti 2 kurs talabasi

Abdullayevtohirbek90@gmail.com

Mamatqulova Mohira Yolqin qizi

Sam DTU, Stomatologiya fakulteti talabasi

mamatqulovamohira831@gmail.com

***Annotatsiya.** Proskoryakova lagoxilusi – Labguldoshlar (Lamiaceae) oilasining Lagochilus turkumiga mansub bo‘lib, prof. M. I. Ikramov tomonidan tur sifatida aniqlangan. L. Proskoriakova qimmat baho dorivor o‘simlik bo‘lib, uning bargi, gul qismlari (gulkosa va gultojlari) lagoxilen moddasiga juda boy bo‘ladi. Shu sababli ilmiy tibbiyotda qon to‘xtatuvchi preparat sifatida foydalaniladi. (Bu xususiyatini birinchi marta Akanov – 1946; Ikramov – 1976; Ibragimov – 1977- yil aniqlaganlar).*

L. Proskoriakova Pomir – Oloy tog‘- tizmasining neoendemik o‘simliklaridan hisoblanib, hozirda tabiatda ularning soni juda ham kamayib ketmoqda va shu sababli muhofazaga ehtiyoj sezgan o‘simliklardan. Bu asosan Nurota tog‘ tizmalarida, janubiy qiyaliklarida ko‘plab uchraydi.

Kalit so‘zlar: *Proskoryakova lagoxil, gulkosa va gultoj, flora, Nurota tog‘, Pomir – Oloy tog‘ - tizmasi, G‘allaorol, Forish, Turkiston lolasi, navro‘zgul.*

Kirish. Bizning boy yovvoyi floramiz dori-darmon manbalaridan biridir. Floramizda ko‘p foydali o‘simliklar bor. So‘ngi yillar davomida yuzlab o‘zimizda uchraydigan yovvoyi o‘simliklar o‘rganilgan.

Tabiatdagi yovvoyi holda o‘sayotgan o‘simliklardan foydalilarini aniqlab ularning biologik va ekologik xususiyatlarini o‘rganish asosida istiqbollilariniajratib madaniylashtirish maqsadga muvofiqdir. Ular qimmat - baho, shifo - baxsh xususiyatlarga ega bo‘lib, sog‘liqni saqlash amaliyotida qo‘llaniladi.

Hozirgi kunda dunyo tibbiyotida ishlatiladigan yuz ming dorivor vositalar ichida 30% ni o‘simliklardan tayyorlanadi.

Shuni ham aytib o‘tish joyizki o‘simlik xom – ashyolaridan tayyorlanayotgan dori – darmonlarga bo‘lgan talab yildan – yilga ortib bormoqda. Darhaqiqat shunday ekan, bu talabni to‘liq qondirish uchun o‘simlik boyliklaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanishga, ulardan dori – darmonlar tayyorlashga jiddiy e‘tibor berish kerak.

Nafaqat yangi turlarni topib, ulardan foydalanish, balkim bu turlarni tabiiy sharoitda saqlab qolish va keng tarqalishiga sharoit yaratish ham muhimdir.

Ana shunday yangi istiqbolli dorivor o‘simliklar hisobiga lagoxilus (*Lagochilus*) turkumi turlari ham mansubdir.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Ushbu o‘rganayotgan ishimizda *Lagochilus Proskorijakova* turi ham qimmat baho dorivorlik xususiyatiga ega bo‘lib, haligacha ilmiy tibbiyotda to‘liq ishlatilgani yo‘q.

Proskoryakova lagoxilusi – Labguldoshlar (*Lamiaceae*) oilasining *Lagochilus* turkumiga mansub bo‘lib, prof. M. I. Ikramov tomonidan tur sifatida aniqlangan. *L. Proskoriakova* qimmat baho dorivor o‘simlik bo‘lib, uning bargi, gul qismlari (*gulkosa* va *gultojlari*) *lagoxilen* moddasiga juda boy bo‘ladi. Shu sababli ilmiy tibbiyotda qon to‘xtatuvchi preparat sifatida foydalaniladi. (Bu xususiyatini birinchi marta Akanov – 1946; Ikramov – 1976; Ibragimov – 1977- yil aniqlaganlar).

L. Proskoriakova Pomir – Oloy tog‘- tizmasining neoendemik o‘simliklaridan hisoblanib, hozirda tabiatda ularning soni juda ham kamayib ketmoqda va shu sababli muhofazaga ehtiyoj sezgan o‘simliklardan. Bu asosan Nurota tog‘ tizmalarida, janubiy qiyaliklarida ko‘plab uchraydi.

Bu o‘simlikni yig‘ib olish mumkin bo‘lgan joy G‘allaorol, Forish rayonlarining tog‘l joylaridan olish mumkin. L. Proskoriakova tabiatda ancha murakkab o‘simliklar jamoasida o‘sadi. U o‘sadigan jamoada subdamenant hisoblanib, lagoxilus- shuvoq farmatsiyasini tashkil qiladi. Qodir Zokirov va Po‘lat Zokirovlarning Klassefikatsiyasiga ko‘ra, L. Proskoriakova termokserofitlarning gipsotermoeuksokserofitlar guruhiga kiradi (gipsli tuproqda issiq sevar o‘simliklar).

L. Proskoriakova Nurota tog‘ tizmalarini janubiy- g‘arb tomonida turli o‘simliklar assosiasiyasida tarqalgan yuqori adirda Janubiy qiyaliklarda may oyida juda ko‘p uchraydi va efimer- shuvoq assosiasiyasida qatnashadi. Tuproq tarkibiga ko‘ra o‘simliklar qoplamida Lagochilus Proskorijakovaning uchrashi ham turlicha bo‘ladi. Lagochilus o‘sadigan o‘simliklar jamoasidan dominantlik qiluvchi efimeroitlardan navro‘zgul, rang bo‘ladi.

Kam bo‘lsada bu jamoada Turkiston lolasi va navro‘zgul o‘simliklari uchraydi. Lekin hamma joyda ham bu o‘simliklarni qatnashishi son jihatidan bir xil bo‘lmasdan efimeroitlar 30% gacha ba‘zan 10-15% ni tashkil etadi. Asosan yozda vegetatsiya qiladigan o‘simliklar ko‘proq uchraydi.

Lagochilus Proskorijakova balandligi 20-35 sm keladigan yarim butacha, ildizi vertikal, ko‘p shoxlangan, poyasi ko‘p sonli, poyaning pastki qismi yog‘ochlashgan, tik o‘sgan oddiy yoki shoxlangan mustahkam bargli, silliq ba‘zan yuqori qismi mayda, so‘rg‘ichsimon tuklar bilan qoplangan, pastki qismi och pushti yoki qizil yaltiroq po‘st bilan qoplangan. Barglari rombsimon asosiy ingichka panjasimon yoki 3-5 bo‘lakli, bo‘laklari yumoloq bo‘lib uzunligi 10-12 mm, yuqoridagi barglarining uzunligi 2,5-3 mm, badda 1-2 a‘zoli o‘tiroq qoldiq tuklar bor. Barg yaprog‘ning ostki qismi bezli tuklar bilan qalin qoplangan, gullari 4-8 (10) tadan ortiq, yuqori barglar qo‘ltig‘ida o‘troq joylashgan. Gulyonbarglari mustahkam gorizantal egilgan ushburchakli,

bigizsimon, uzunchoq bezchalar bilan qoplangan, oxirgilari yalang'och. Gulkosacha barglarining uzunligi 10-15 mm qo'ng'iroqsimon, yuqoridagi bigizsimon o'tkirlashgan, uzunligi 1-1,5 mm gacha. Gulkosacha naychalari bezli yakka- yakka tuklar bilan qoplangan. Toj bargi och pushti, uzunligi 20-22 mm, pastki lablari uch bo'lakli, yuqorisi paxmoq och malla rang, tomirli. Ginetsiy toj barg naychasiga o'rtnashgan.

Iyun - iyul gullaydi, avgust oyida meva tugadi. Pomir – Oloy endimi hisoblanadi.

Bu tur *L.inebrians*dan poyasi kuchsiz egilganligi, tojbarglarining bezli yakka tuklar bilan qoplanganligi va och- pushti bo'lishi bilan farqlanadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki bu o'simliklar tabiatda juda ham kam sonli bo'lib, ularni saqlab qolish eng muhim masalalardan bo'lib hisoblanadi. Bu o'simliklarni saqlab qolish ushuni o'sadigan joylarini muhofaza qilinadigan "Buyurtmaxonalar" tashkil qilish va ularni madaniylashtirish yo'llari bilangina saqlab qolish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Нормуродов. Х, Икрамов. М, А. Юлдашев – Новые лекарственные растения – Зайцегуб кштутский и зайцегуб зарафшанский. Ташкент "Меҳнат" - 1992
2. Qosimov. A . I – Dorivor o'simliklar (ma'lumotnoma) Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot- matbao birlashmasi, 1994- yil.
3. Normurodov. X – Lagochilusning (*Lagochilus. L*) xalq va ilmiy tabobatda qo'llanilishi. Xalqaro Ibn Sino jurnalida. 2002- yil.
4. Икрамов. М. И, Нормуродов. Х – Изучения запасов сырья *Lagochilus inebrians L. U. Achilliea mellefolium L.* в Самаркандской области. Растительные ресурсы.Т. 23.вып. 2. Санкт Петербург.2004.
5. Болтаев К.С., Жамалова Ф.А., Мамарасулова Н.И. Экологическое группирование нематодофауны тугайных растений . Вестник Хорезмской академии Маъмуна.№5 (79) 2021. 33-37 стр.

6. Sultonovich, B. K., Abdusalomovna, J. F., Isrofilovna, M. N., Mansurovich, U. F., & Sultanovich, K. (2022). A COMPARATIVE STUDY OF NEMATODA-FAUNA OF PASTURAL PLANTS IN FOREST BIOTOPES. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3 (05), 41–45.

7. Sultonovich, B. K., Abdusalomovna, J. F., Isrofilovna, M. N., Mansurovich, U. F., & Sultanovich, K. (2022). A COMPARATIVE STUDY OF NEMATODA-FAUNA OF PASTURAL PLANTS IN FOREST BIOTOPES. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3 (05), 41–45.

9. Одилова Г. и др. СЫВОРОТОЧНЫЕ ИММУНОГЛОБУЛИНЫ ПРИ САЛЬМОНЕЛЛЕЗНОЙ ИНФЕКЦИИ У ДЕТЕЙ //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 1197-1199.

10. Boltayev K. S., Jamalova F. A., Shodiyeva D. G. MIKOZLARGA MIKROBIOLOGIK MIKROSKOPIK TASHXIS QO ‘YISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1 (3), 35–40. – 2023.

11. Одилова, Г., Мамарасулова, Н., Саидов, С., Турдиев, Ш., Холбоев, Р., & Хамраев, Г. (2022). СЫВОРОТОЧНЫЕ ИММУНОГЛОБУЛИНЫ ПРИ САЛЬМОНЕЛЛЕЗНОЙ ИНФЕКЦИИ У ДЕТЕЙ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 1197-1199.

12. Одилова Г. М. и др. Клинические особенности течения ветряной оспы у взрослых в современных климатических условиях //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 28 (77). – С. 70-78.

13. Sh S. H., Mamarasulova N. I. ANTIBIOTIKLAR VA ANTIBIOTIKOREZISTENT LAKTOBAKTERIYALARNI BIRGALIKDA BOLALARDAGI ESHERIXIOZ KASALLIKLARNI DAVOLASHDA QO‘L-LANISHI. – 2023.

14. Sultonovich, B. K., Isrofilovna, M. N., Abdusalomovna, J. F., & Olimovna, O. P. (2022). A comparative study of nematoda facilities of shortage plants and trees in zarafshan forest biotopes. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(5), 1-5.

15. Isrofilovna M. N., Qizi O. B. Q., Qizi S. M. R. ICHAK INFEKTSIYALARINING PATOGENEZI VA DIAGNOSTIKASIDA ALLERGIYANING ROLI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – T. 1. – №. 17. – С. 252-256.

16. Юсупов, М., Шайкулов, Х., Одилова, Г., & Мамарасулова, Н. (2023). Раннее выявление ротавирусной инфекции у детей. *Каталог монографий*, 1(1), 1-68.

17. Юсупов, М. И. (2024). ТОПОГРАФИЯ ВЕТВЕЙ ЛИЦЕВОГО НЕРВА И АСИММЕТРИЯ ЕГО ВЕТВЛЕНИЯ У ПЛОДОВ И НОВОРОЖДЕННЫХ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(1), 284-289.

18. Болтаев, К., Мамедов, А., Хожакулов, Д., & Мамарасулова, Н. (2024). Samarqand viloyati to 'qay sharoitida o 'suvchi yovvoyi o 'simliklar nematodalari kompleksining ekologiyasi. *Каталог монографий*, 1(1).

19. Mamarasulova, N. I., & Odilova, G. M. (2023). BERBERIS INTEGERRIMA BUNGENING IKKILAMCHI METABOLITLARINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA BIOTEKNOLOGIK AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(10), 33-43.

20. Sh, S. H., & Mamarasulova, N. I. (2023). O 'TKIR DIAREYALARDA ESHERIXIYALARNING AJRALISHI.